

OLIV TA`LIM TALABALARINING INGLIZ TILIDAGI NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING PSIXO-FIZIOLOGIK JIHA TLARI

Nurjamol Normatova

Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, PhD

E-mail: normatova.nurjamol@mail.ru

Orcid-ID: 0000-0002-7148-9451

+998-94-460-00-24

Annotatsiya. O'rganilayotgan xorijiy tilda o'z fikrlarini ifodalashda talabalar oldida o'z ona tilidan tarjima qilish zarurati tug'iladi. Bu esa nutqni hosil qilishda ko'proq ichki nutq asosiy o'rin egallashini ko'rsatadi va og'zaki nutq ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Chet tildagi og'zaki nutq jarayonida ishtirok etuvchi nutq operatsiyalari avtomatlashganlik bosqichida bo'lishi, kommunikativ vaziyatlarga muvofiq tarzda ishlatilishi, yangi (variantiv) sharoitlarda o'z sifatini saqlab qola olishi uning rivojlanganlik xususiyatini tasdiqlay oladi.

Kalit so'zlar: psixo-fiziologik omillar, xorijiy til, kommunikativ kompetensiya, oliy ta'lim talabalari, ichki va tashqi nutq.

Psixo-fiziologiyada shaxsning sub'ektiv xususiyatlari, ya'ni uning atrof-muhitni o'zgartirishga bo'lgan faol harakatlari, shuningdek, qiziqish va ehtiyojlari, mo'ljallangan natijalarga erishish yo'llari, ularning amaliy ahamiyati va ko'lamli xorijiy tilni egallashda asosiy ko'rsatgich bo'lishi mumkin. Vigotskiy L.S. og'zaki nutqni rivojlantirish jarayoni inson taraqqiyotining muhim omili ekani va unda til o'rganuvchining aqliy bilan bir qatorda shaxsiy rivojlanishini ta'kidlab o'tadi. Demak, mashg'ulotlar o'qituvchi va talabalarning o'zaro faol ta'sir ostida bo'lishi, unda erkin va do'stona muhit, o'zaro tenglik hissi hukmronlik qilishi lozim. Shukin A.N. bunda mehnatni rivojlantirish, o'rganuvchi va o'rgatuvchi tomonidan ta'lim jarayonini teng boshqarish va o'z ustida ishlash qobiliyatini rivojlantirish; atrof-muhitdagi real voqea hodisalarning mashg'ulotlarda aks etish imkoniyatlarini tashkil qilishini qayd etadi.

Nutq ikkinchi bosqich analitik-sintaktik jarayonda yuzaga keladi. Bunda fikr va xulosalar til vositasida shakllantiriladi va gapirish jarayoni amalga oshiriladi. Til materiallarini bilmay turib tashqi nutqni shakllantirib bo'lmaydi. Sintagmatik aloqada bir so'zning boshqalari bilan mos kelishiga e'tibor qaratiladi. Og'zaki nutqni rivojlantirishda asosiy ahamiyat kasb etgani holda, sintagmatik aloqa tahlil jarayonini amalga oshiradi. Bunda sistematik ravishda og'zaki nutqda qo'llanilishiga tayyor bo'lgan xorijiy til birliklari tanlanadi ("I know the answer"; "I want to go out"; "let me think" kabi), motorik xotira ishga tushadi, hamda verbal vositalar yodga olinadi.

Sintez jarayoni konstruksiyalash, kombinatsiya qilish, iboralarni qurish yoki qayta qurish – ya'ni uni grammatik tuzishni o'z ichiga oladi, aynan mana shu jarayon xorijiy tildagi og'zaki nutqni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Talaba muloqotga kirishishda dastavval xotirasida saqlanib qolgan iborani yodga oladi, nutqiy vaziyatga uning qay darajada mos kelishini tahlil qiladi, zarurat tug'ilganda muvofiq shaklga o'tkazish lozimligini tushunadi va muayyan turlarga transformatsiya qiladi. Birinchi va ikkinchi bosqichlarda ko'nikma va malakalar shakllantirilsa, uchinchi bosqichda og'zaki nutq ko'nikma va malakalari xamohanglikda rivojlantirib boriladi.

s) Nazorat qiluvchi-bajaruvchi qism og'zaki bayonotning tashqi ko'rinishini tartibga keltirish va nazorat qilish jarayonidir. Uning vazifasi yo'l qo'yilgan xatolar haqida xabar berish va ularni to'g'rilashdan iborat. U til ustida muntazam ishlash, aynan og'zaki nutqdan muntazam foydalanish amaliyoti jarayonida yuzaga keluvchi – "etalon" sifatida xizmat qiladi. Mazkur faoliyatda avvalambor uch turdagi ko'nikmalar: leksik, grammatik hamda talaffuz faollashganini ko'ramiz. Ular o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, nutqiy bayonot komponentlaridan birining rivojlanmay qolishi – kodsizlantirish jarayoni, ya'ni kommunikatsiyaning buzilishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Axmedova L. T. Pedagogicheskie innovatsii kak uslovie razvitiya professionalnoy podgotovki studentov // Obrazovanie cherez vsyu jizn: nepretyvnoe obrazovanie v interesax ustoychivogo razvitiya: – T., 2010. – 8 b.

Bensaci, H. S. An introduction to English for Specific Purposes (ESP). – Algerian University, 2016. –301 r.

NORMATOVNA N. N., OBIDOVNA A. F. THE ROLE OF TEACHER-MADE RUBRICS ON EFL SPEAKING ASSESSMENT: PERSPECTIVES ON STUDENTS'DECISION-MAKING, PROFESSIONAL DEVELOPMENT, AND WORKLOAD //THE AMERICAN JOURNAL OF INTERDISCIPLINARY INNOVATIONS RESEARCH Учредители: The USA Journals. – 2025. – Т. 7. – №. 1. – С. 14-18.

Snow, M.A., & Brinton, D.M. The Content-Based Classroom: New perspectives on integrating language and content (2nd ed.). – MI: University of Michigan Press, 2017. – 160 r.

Vygotsky, L. Mind in society. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2001. – 211 p.